

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Oct., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA BOSHQARUV

MADANIYATI VA UNING MEZONLARI

Mamadaliyev Anaxon Ziyodillayevich
Namangan Muhandislik Qurilish instituti
Mashinasozlik fakulteti dekan muovini.
Tel; +998941557785. Anazkhon@mail.ru

Annatasiya

Mazkur maqolada Tadqiqotimiz davomida Sharq mutafakkirlarining boshqaruv madaniyatiga oid fikrlar va boshqaruvga ta'sir ko'rsatadigan g'oyalari haqida fikr yuritilgan. Ko'plab olimlar va ulamolarning jamiyat va davlatni boshqarishda adolat va tenglik g'oyalari ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, jamiyat, boshqaruv.

Аннатасия

В данной статье в ходе нашего исследования были обсуждены представления восточных мыслителей об инструментах культуры управления и их влиянии на управление. Идеи справедливости и равенства в управлении обществом и государством выдвигались многими учеными и учеными.

Ключевые слова: личность, общество, управление.

Annatasia

In this article, during our study, we discussed the ideas of Eastern thinkers regarding the culture of management and the ideas that affect management. The ideas of justice and equality in the management of society and the state have been put forward by many scientists and scholars.

Key words: person, society, management.

Sharqda qadimdan boshqaruv sohasiga e'tibor qaratib kelingan. Sababi, jamiyat va davlat boshqaruvi qadimdan sharqlik mutafakkirlarning e'tiborini o'ziga jalb qilib kelgan. Ko'plab olimlar va ulamolalar jamiyat va davlatni boshqarishda adolat va tenglik g'oyalarini ilgari surishgan. Turkiy xalqlarning tarixini yorituvchi qadimgi



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Oct., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

manbalarda pand-nasihah va o'g'itlar aytilgan asarlar ham ko'plab uchraydi. Ana shunday asarlar jumlasiga Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk» asari ham kiradi. Alloma mazkur asarni 1076-1077 yillarda yozgan.

Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit-turk» asarida shaxsni boshqarishga doir qarashlarning aks etishi. Ijtimoiy munosabatlar mazmuni, odamlar o'rtasidagi o'zaro muloqot holati ham bilimli, donishmand kishilarning aziyat chekishlariga sabab bo'ladi. Zero, hayotda aksariyat holatlarda manman, zo'ravon, xudbin odamlarning omadlari keladi, ular yuqori mansablarni egallab, xalq va yurt manfaatlariga zid bo'lgan harakatlarni amalga oshiradilar. Bilimli kishilar esa ularni bunday yo'ldan qaytarish imkoniyatiga ega bo'lmaganliklaridan afsuslanadilar, chorasizliklaridan ranjiydilar. Hukmdorlarning nodon, kaltafahm bo'lishlari tufayli oqil insonlar munosib ravishda hurmat topmaydilar, qadr-qimmatlari toptaladi. Mahmud Qoshg'ariy ushbu holat so'yilgan jonliq tanasining erlarga sudralib xor bo'lganiga o'xshaydi, deydi shoir.

«Devonu-lug'otit-turk» asarida boshqaruvga doir fazilatlarining yana biri – xushxulqlik alohida ajratib ko'rsatiladi. Bilim va hunar egasi bo'lish, ezgulik, yaxshilik yo'lida hamda umum manfaati uchun mehnat qilish xushxulq insonga xos fazilat ekanligini alloma alohida qayd etib o'tadi.

O'rta asr ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyoti mutafakkir Abu Nasr Forobiy nomi bilan bog'liq bo'lib, uning inson kamoloti haqidagi ta'limoti shaxsni boshqarish sohasida katta ahamiyatga ega. Mashhur yunon faylasufi Arastudan keyin SHarqda o'z bilimi, fikr doirasining kengligi bilan nom chiqargan Forobiyni yirik mutafakkir – «Muallimiy soniy» – «Ikkinchi muallim» deb ataydilar.

Abu Nasr Forobiy qomusiy olim hisoblanadi. Tadqiqotchilar uning 160 dan ortiq ilmiy asarlar yaratganligini qayd etadilar. Abu Nasr Forobiy o'rta asr davri ilm-fani taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan olim, Forobiy tabiiy, ilmiy va ijtimoiy bilimlarning barcha sohalarida ilmiy ish olib borgan. Forobiy o'zidan keyin juda boy ilmiy meros qoldirgan. Falsafa, musiqa, filologiya va boshqa tabiiy, ilmiy bilimlarning turli sohalarida asarlar yaratgan. Demak, Forobiy inson baxt – saodatga erishuvi uchun ularni baxtli-saodatli qila oladigan jamoa rahbari bo'lishi kerak deydi. U fozil shahrini boshqaradigan hokim tabiatan: 1) sog'-salomat bo'lib, o'z vazifasini bajarishda hech qanday qiyinchilik sezmasligi; 2) tabiati nozik, farosatli; 3) xotirasi mustahkam; 4) zehni o'tkir; 5) o'z fikrini tushuntira oladigan notiq; 6) bilim-ma'rifatga havasli; 7) taom eyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat emas, aksincha, o'zini tiya oladiga bo'lishi (qimor yoki boshqa o'yinlardan)



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Oct., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

zavq, huzur olishdan uzoq bo‘lishi; 8) haq va haqiqatni, odil va haqg‘oy odamlarni sevadigan, yolg‘onni va yolg‘onchilarni yomon ko‘radigan; 9) o‘z qadrini biluvchi va oriyatli bo‘lishi; 10) mol dunyo ketidan quvmaydigan; 11) adolatparvar; 12) qat‘iyatli, sabotli, jur‘atli, jasur bo‘lishi muhimligini qayd etadi⁷. Forobiy bu fazilatlarni har bir etuk insonda ko‘rishni istaydi.

Forobiy o‘zining fozil jamoasida odamlarni turli belgilariga qarab guruhlariga bo‘ladi. Bunda u, kishilarning diniy mashabiga, millatiga, irqiga qarab emas, balki tabiiy hususiyatlariga, qobiliyatlariga, aqliy iqtidoriga, bilim ko‘nikmalariga e‘tibor berishlik zarur deydi. U o‘zining «Baxt saodatga erishuv yo‘llar haqida risola» asarida «Davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borishdir, - deb yozadi. U, - bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo‘lga kiritadi». Forobiy davlatni etuk shaxs boshqarishi lozim deydi; ya‘ni jamoani idora etuvchi adolatli, dono bo‘lishi, qonunlarga rioya etishi va qonunlar yarata olishi, kelgusini oldindan ko‘ra bilishi, boshqalarga g‘amxo‘r bo‘lishi lozim deydi.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asari 6500 baytdan yoki 13000 misradan iborat. Buyuk mutafakkir asarni yozib tugatgach, qoraxoniylar hukmdori Tavg‘achxon (kitobda Tavg‘och Ulug‘ Bug‘ra Qoraxon (xoqon), Abo Ali Hasan binni Sulaymon Arslon Qoraxon (xoqon) nomlari bilan zikr etilgan) huzuriga kelib, unga taqdim etadi. Kitob xonga manzur bo‘lib, uning muallifiga Xos Hojiblik unvonini beradi. «Qutadg‘u bilig» asari katta shuhrat qozonadi. SHuning uchun ham «Qutadg‘u bilig»ni chinliklar (Xitoy) «Adab ul-muluk» («Hukmdorlar odobi»), mochinliklar (SHarqiy Turkiston) «Anis ul-mamolik» («Mamlakatning tartib usuli»), eronliklar «SHohnomai turkiy», SHarq elida «Ziynal ul-umaro» («Amirlar ziynati»), turonliklar «Qutadg‘u bilig», ba‘zilar esa «Pandnomai muluk» («Hukmdorlar nasihatnomasi») deb atagani kitob muqaddimasida keltiriladi.

Mazkur asarning shuhrat topishi bejiz emas edi. Chunki Yusuf Xos Hojib o‘z davrining etuk mutafakkiri, chuqur bilimli, donishmand kishisi edi. Buni asarning mundariyasi va mazmunidan bilsak bo‘ladi. U o‘z asarida tibbiyot, falakiyot, tarix, tabiiyot, geografiya, riyoziyot, handasa, falsafa, adabiyot, ta‘lim-tarbiya, fiqhga oid fikrlarni bayon etib, faylasuf va qomusiy olim sifatida o‘zini namoyon etdi. Chunonchi u barcha ijtimoiy tabaqalar o‘rtasidagi muomala, munosabatlarni yoritish bilan diplomatiyaga oid qoidalar tizimini yaratdi, turli kasb egalarining kasb koriga oid talablar va jamiyatning axloqiy tamoyillarini tarannum etish bilan ta‘lim-tarbiya sohasida o‘ziga xos uslubni yaratdi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Oct., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Qutadg‘u bilig – baxt va saodatga eltuvchi bilim, ta‘lim degan ma‘noni bildiradi. Demak, asar nomidan ham uning pand-nasihatlar, ta‘lim-tarbiyaga oid, har tomonlama komil insonni tarbiyalaydigan etuk didaktik asar ekanligi yaqqol ko‘rinib turibdi.

«Siyosatnoma» – personalni boshqarishga doir noyob manba sanaladi. Rahbarlik va rahbar tanlash masalasining o‘ta murakkab ish ekanligi, «etti o‘lchab, bir kesish» lozimligi haqida XI asrdan buyon kattalar uchun ta‘lim-tarbiya sohasida namuna bo‘lib kelgan va Sharq tarixi, madaniyatida o‘zining «Siyosatnoma» asari bilan o‘chmas iz qoldirgan Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy – Nizomulmulkdir. Nizomulmulk kishilarni ishga tayinlayotganda nimalarga e‘tibor berish lozimligi haqida fikr yuritib, amaldorlarni to‘g‘ri tanlab, ularga qo‘llaridan keladigan ishlar va vazifalarni topshirib, ularning ijrosini o‘z vaqtida talab qilish lozimligini qayd etadi.

Ko‘rinib turibdiki, Nizomulmulk o‘z davrida davlatni boshqarishda lavozimga ega bo‘lgan vazirlar, boshqa kichikroq lavozimga ega kishilarni o‘z ishlariga jiddiy munosabatda bo‘lishini, ularni halol va pokiza ishlarni bajarishga da‘vat etgan. Uning bu gaplari hozir ham o‘zining ahamiyatini yo‘qotmaydi. SHarqda qadimdan juda mashhur bo‘lgan «Siyosatnoma» degan asarda podshoh, hokim, amir va beklar, qozi-yu kuzzotning, zamonaviy til bilan aytganda, rahbarning bosh vazifasi «qo‘yu qo‘zilarni bo‘rilardan muhofaza qilib, harom qo‘llarni kesib, er yuzini yomonlik qiluvchilardan tozalash, jahonni adolat va osoyishtalik bilan obod qilishdan iborat», – deb ko‘rsatgan. Ma‘lum bo‘ladiki, boshqaruv madaniyati jamiyat va davlat boshqaruvida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki jamiyatni demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiyalashtirish aynan boshqaruv madaniyatining shakllantirilishini talab etadi. SHu sababli boshqaruv madaniyati tushunchasini ijtimoiy pedagogika nuqtai nazaridan ilmiy-nazariy tomondan tahlil etish masalaning ijobiy echimini hal etishga xizmat qiladi.

Bo‘lajak qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish sohasi bakalavrlarida boshqaruv madaniyatini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish yuzasidan quyidagi xulosalarni qayd etish maqsadga muvofiq:

- birinchidan, qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish sohasi bakalavrlari boshqaruv madaniyati tushunchasining mazmun mohiyatini nazariy jihatdan tahlil etishni anglab etishlari e‘tiborli sanaladi, bu bevosita ularning kelguvsi faoliyatida jamiyatning o‘z mustaqil nuqtai nazariga ega faol fuqarolarini tarbiyalash bilan bog‘liq;



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Oct., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

- ikkinchidan, qo'yilgan maqsadga erishishni ta'minlovchi, ya'ni, boshqaruv madaniyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi tamoyil, va vazifalarning nazariy va amaliy ahamiyatini anglashga zamin yaratuvchi elementlarning mohiyatini anglab etish, bu esa tabiiyki bo'lajak qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish sohasi bakalavrlari tomonidan mamlakatimiz kelajagi bo'lmish yosh avlod bilan ishlashni to'g'ri tashkil etish va munosabatga kirishish jarayonini nazarda tutadi;

- uchinchidan, Sharq mutafakkirlari azaldan jamiyat va davlat boshqaruvi masalasida o'zlarining turli ilmiy qarashlarini ifodalab kelishgan, ular asosan o'sha davrlardayoq shaxs, jamiyat va davlat munosabati masalasida o'z tajribasidan kelib chiqib ilmiy bahs olib borishgan, bu ham o'z o'rnida bo'lajak qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish sohasi bakalavrlarida boshqaruv madaniyatining shakllantirilishida tarixiy manba konsepsiya sifaida asos bo'lishini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ravshanov F. Milliy rahbarshunoslik: tarix va tajriba. Toshkent, Akademiya, 2007 y. 67-bet
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent – 2003. 635 b.
3. Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk» 1076-1077 y.
4. Abu Nasr Forobiy «Baxt saodatga erishuv yo'llar haqida risola»
5. Golovneva I.V. Psixologicheskiye osnovi kadrovogo menedjmenta. Ucheb. posobiye dlya studentov vysshix ucheb. zavedeniy. 2-ye izd. dop. i pererab. X: Izd-vo NUA, 2007. S. 152: Maxmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. - T: "unaks-print", 2005. 170.6.
6. <http://bibiofond.ru>

